

## **OLIY TA`LIMDA MUSTAQIL TA`LIMNI BAJARILISHINING AHAMIYATI**

**Shamirzayeva Zarifa Xudoyorovna**

*Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti*

*Tayanch doktaranti*

*E-mail address: zarifa@gmail.com*

*Tel: +998901395659*

Rivojlanib borayotgan mamlakatimizda malakali xodimlarga bo`lgan talab ham kuchayib bormoqda. Buni ayniqsa ingliz tili o`qituvchilariga qo`yiladigan talablarda yaqqol ko`rishimiz mumkin. 2021 yildan chet tili o`qituvchilariga milliy va xalqaro sertifikatga ega bo`lish talabi kiritildi. Prezident videoselektorda bundan buyon, xorijiy tillar o`qituvchilarining oylik maoshi, ularning malakasiga qarab belgilanishini ma'lum qildi. Qolaversa, 2021 yildan chet tili o`qituvchilariga milliy va xalqaro sertifikatga ega bo`lish talabi kiritilishi aytildi. Davlatimiz rahbari keyingi 3 yil davomida maktablardagi jami 53 ming nafar chet tili o`qituvchilari xalqaro sertifikat olishlari zarurligini va **bundan buyon, xorijiy tillar o`qituvchilarining oylik maoshi, ularning malakasiga qarab belgilanishini ta`kidladir.** Xalqaro sertifikatning dastlabki va o`rta daraja olgan o`qituvchilarga — 40 foiz va yuqori natija ko`rsatganlarga 50 foiz ustama belgilanadi. Yuqoridagi qarorlarga ko`ra oliy ta`lim muassalari o`qituvchi-proffessorlari o`z ustida yanada ko`proq ishlashlari va talabga javob beradigan kadrlarni yetishtirishlari muhim masalalardan ekanligi ko`rinib turibdi. O`qituvchini oldidagi muhim masalalardan biri darsga tayyorgarligi, maqsadni va vazifalarni to`g`ri belgilagan bo`lishi lozim. Ikki bosqichli oliy ta`lim tizimida o`ziga xos ta`lim shakllari mavjud ya`ni auditoriyada o`tkaziladigan leksiya, seminar, amaliy mashg`ulotlar va auditoriyadan tashqarida o`tkaziladigan mashg`ulotlar (mustaqil ta`lim) bo`lishi mumkin. Agar bu dars turlari bir-birini to`ldirsa ya`ni takrorlamasa darsdan kutilayotgan natija va samaradorlik shunchalik yuqori bo`ladi. Ma`lumki mustaqil ta`limda bajariladigan mashg`ulotlar auditoriyada o`tkaziladigan mashg`ulotlardan birmuncha farq qiladi. Ya`ni talabalar mustaqil ta`limning vazifalarini bajarish jarayonida mustaqil izlanishadi, qo`shimcha tavsiya etilgan kitoblar, qo`llanmalar, gazeta va jurnallar bilan ishlashadi. Bunda bo`lajak o`qituvchilar o`z ustida ishlashni, mustaqil izlanuvchi bo`lishni, adabiyotlardan to`g`ri foydalanishni o`rganadi. Bo`lajak o`qituvchilarning pedagogik qobiliyatini rivojlantirishda to`g`ri tashkil qilingan mustaqil ta`lim mashg`ulotlari muhim omillardan biri hisoblanadi. Oliy ta`lim muassasalarida talabalar ingliz tilini ko`nikmalarni (gapisht, o`qish, eshitish va tinglash) rivojlantirish orqali



o`zlashtirishadi. Pedagogika universitetlarining xorijiy til va adabiyoti yo`nalishida o`qiyotgan talabalar ingliz tilini OYONA (og`zaki va yozma nutq amaliyoti), Reading and Writing kabi amaliy mashg`ulotlar orqali chuqur o`rganishadi. Bu kabi fanlar talabalarning bo`lajak o`qituvchi sifatida o`zining pedagogik qobiliyatlarini astasekin rivojlantirishga yordam beradi. Mustaqil ta`lim mashg`ulotlari dars turidan kelib chiqqan holda, o`qituvchi-professorlar tomonidan zamonaviy pedtexnologiyalarga asoslanib, kursiga, talabalarning til bilish darajasiga ko`ra dasturda qayd etiladi. Lekin o`qituvchilar ushbu faoliyat turini yetarlicha baholay olmaydilar, chunki ular o`quvchining faoliyatini to`liq nazorat qila olmaydi. Ba`zan esa talabalar mustaqil ta`lim faoliyatini to`g`ri yo`lga qo`ya olmasliklari mumkin. R.M.Mikkelsonning ta`kidlashicha, mustaqil ta`lim - o`quvchilar tomonidan hech qanday yordamsiz, lekin o`qituvchi nazorati ostida topshiriqlarni bajarishdir. I.E.Unit esa mustaqil ishni o`rganish usuli sifatida tasniflaydi. M.A.Danilovning fikricha fikricha, kognitiv vazifa talabalarni mustaqil ishslashga undaydi, ularning fikrlash jarayonining boshlang`ich nuqtasi bo`lib xizmat qiladi. Talabalarning mustaqil ishlarni bajarishining ahamiyatliligi shundaki:

- 1) Ilmiy axborotning tez o`sishi
- 2) Ta`limda ma`lumotlar oqimining eng yuqori darajasini ta`minlash
- 3) Mustaqillik kabi shaxsiy xususiyatlarni shakllantirish

Konyusheva A.V ning fikricha, mustaqil ish o`qituvchining bevosita ishtirokisiz faol, maqsadli ravishda yangi bilim va ko`nikmalarni egallah usulidir. Mustaqil ta`limning asosiy maqsadlari:

- Olingen bilim va ko`nikmalarni tizimlashtirish va mustahkamlsh
- Talabalarning kognitiv qobiliyatları va faolligini rivojlantirish
- Ijodiy tashabbus,o`rganilayotgan yo`nalishlar bo`yicha nazariy bilimlarni chuqurlashtirish
- Fikrlash, o`z-o`zini tartibga solish, o`z-o`zini takomillashtirish, o`z-o`zini rivojlantirish mustaqilligini shakllantirish
- Talabalarning tadqiqotchilik qobiliyatlarini rivojlantirish

Kolesnikova va O.A.Dolginaning fikrlariga ko`ra, mustaqil ishning samaradorligi birinchi navbatda o`qituvchiga, uning talabaning mustaqil ishslashga munosabatini shakllantirish qobiliyatiga, uning malakasiga bog`liq. O`qituvchi bu ko`nikmalarni shakllantirish jarayonini boshqaradi, u o`quvchilar bilan individual, juftlik yoki jamoada ishlashi mumkin. Mustaqil ish juftlashgan yoki 3 kishi ishtirok etsa samaraliroq bo'ladi. Guruhda ishslash o`zaro nazorat tufayli motivatsiya darajasini, o`quvchilarning bilim faolligini rivojlantirish va jamoaviy ishlarni bajarishga qiziqishni oshirishga yordam beradi. Mustaqil ish o`quvchi faoliyatidagi



takror, ishlab chiqarish va ijodiy jarayonlarni o'z ichiga oladi. Bunga qarab mustaqil ishning uch darajasi ajratiladi.

- Reproduktiv darajaga o'qish, o'quv adabiyotlarini yozib olish, ma'ruzalar tinglash, audio va video yozuvlar, yodlash, qayta aytib berish, yodlash, Internet resurslari, o'quv materialini takrorlash kiradi.

- Kognitiv-qidiruv seminar va amaliy mashg'ulotlarda xabarlar, ma'ruzalar, nutqlar tayyorlash, intizomiy muammolar bo'yicha adabiyotlar tanlash, referatlar, insholar, testlar yozish, ishbilarmon o'yinlarga tayyorgarlik ko'rish va boshqalarni o'z ichiga oladi.

- Ijodiy daraja - mustaqil ish darajasi - ilmiy maqolalar, tezislar yozish, tadqiqot ishlarida qatnashish, talabalarning ilmiy konferentsiyasi, olimpiadalarida qatnashish va boshqalarni o'z ichiga oladi. Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozim:

1. Talabaning mustaqil ishi bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashda katta rol o'ynaydi, chunki u talabalarni yangi bilimlar bilan boyitadi va har qanday nostandard vaziyatlarda o'z yechimlarini topishga o'rgatadi.

2. Universitetda mustaqil ish samaradorligini oshirish uchun talabalarni mustaqil ishslash usullariga o'rgatish va ularni o'z-o'ziga yordam berishning turli shakllarini taqdim etadigan zarur, to'g'ri tuzilgan o'quv-uslubiy materiallar bilan ta'minlash kerak.

3. Ilmiy-tadqiqot ishlarini rivojlantirish uchun yangi bilim va tajriba olishga qaratilgan o'quvchilarni o'qitish va tarbiyalashning ilg'or shakllarini mohirlik bilan uyg'unlashtirish kerak.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Омелаенко Н.В. МЕТОДИКА И ОРГАНИЗАЦИЯ САМОСТОЯТЕЛЬНОЙ РАБОТЫ СТУДЕНТОВ // Современные научно-исследовательские технологии. – 2016. – № 2-3. – С. 538-542;

2. Буряк В. К. Самостоятельная работа учащихся. – М.: Просвещение, 2004.

3. Пидкасистый П.И. Самостоятельная познавательная деятельность школьников в обучении: Теоретико-экспериментальное исследование.- М.: Педагогика, 1980, 240 с

4. Гончарова Ю. А. Организация самостоятельной работы студентов : методические рекомендации для преподавателей вузов / Ю.А. Гончарова ; Воронеж. гос. ун-т. – Воронеж : ИПЦ ВГУ, 2007. – 28 с. URL : обращения: 01.08.2016).

